



YASSAVI "PROVERBS" IDA THE QUESTION OF REFERENCES

Bahronova Dilmora Alisher qizi¹

¹ Student of Bukhara State University, Faculty of Philology

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4934741>

ARTICLE INFO

Received: 01st June 2021

Accepted: 05th June 2021

Online: 10th June 2021

KEY WORDS

Khoja Ahmed Yassavi,
"Devani hikmat", zikr, til
Zikr, dil Zikr, vujud Zikr,
Zikr jahri, Zikr Khufiya,
Kur Karim, Hadisi sharif,
Azozil, istig'for, salovat
and asmoi SAB'a

ABSTRACT

This article explores the views of Ahmad Yassavi on the issue of references to "Devoni hikmat". The sayings of yassavi about dhikr were cited, which were interpreted through a specific chapter, verse and Hadith. Also, the article mentioned giving detailed information to both the customers regarding the testimonials.

YASSAVIY "HIKMATLAR"IDA ZIKR MASALASI

Bahronova Dilmora Alisher qizi¹

¹ Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-iyun 2021

Ma'qullandi: 05-iyun2021

Chop etildi: 10-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

Xo'ja Ahmad Yassaviy,
"Devoni hikmat", zikr, til
zikri, dil zikri, vujud zikri,
zikri jahri, zikri xufiya,
Qur'oni Karim, Hadisi
sharif, Azozil, istig'for,
salovat va asmoi sab'a

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat"i keltirilgan zikr masalasiga oid qarashlar o'rganilgan. Yassaviyning zikr borasidagi hikmatlari keltirilib, ular ma'lum bir sura, oyat va hadislar orqali sharhlab berilgan. Shuningdek, maqolada zikr xususida ham mushtariylar uchun batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan.

Zikr – soʻzlash, tilga olish, xotirlash. Zikr tasavvufda 3 turlidir: til bilan zikr qilish, dil bilan zikr qilish va vujud bilan zikr qilish. Til bilan zikr qilish imon ahlining dastlabgi darajotidir, ya'ni musulmon ahl avval faqat til bilan zikr qiladi va hali uni

diliga jo qilmagan boʻladi. Azozil ham tildan Alloh nomini sira tushirmas edi, faqat toat va taqvo bilan band edi, mudom Allohni zikr qilib, unga imon keltirar edi. Ammo uning tildagi zikri qalbigacha yetib bormadi, u tildagi zikrga



erishdi , lek dil zikriga yetisholmadi. Shaytondagi paydo bo'lgan kibr va manmanlik ham uning dil zikriga yetolmaganligidandir.

Dil zikri til zikridan keyingi (bosqichdagi) zikrdir. Ya'nikim ham amalda , ham tilda , ham so'zda , ham dilda Allohning nomini zikr qilsa , faqat Alloh yodi ila yashasa va qalbida zarracha nafs urug'i qolmagan bo'lsa , u haqiqiy zikr ahlidandir. Bunday zikr namunasiga nubuvvat va valoyat ahlining , ya'nikim nabiyalar , valiyalar va so'fiylarning zikrini keltirishimiz mumkin. Bu zikr xoslar zikri hisoblanadi.

Vujud zikri eng yuqori darajadagi zikr hisoblanadi. Butun vujudan Allohni zikr qilish – bu Mansur Halloj , Boyazid Bistomiy kabi vahdatga erishganlarning , “Analhaqlik” da'vosiga yetganlarning zikridir. Boyazid Bistomiyning namoz o'qiyotgan mahal butun vujudidan , ko'krak siynlaridan “Alloh , Alloh !” tovushining chiqishi bu fikrimizga yaqqol dalildir.

Ahmad Yassaviyning oddiy xalq tushunadigan , sodda uslubda yozilgan “Devoni hikmat”ida uning tasavvufiy qarashlari o'z aksini topgan. Unda ilohiy ishq , Haq vasliga yetishish , uning ishqida parvona bo'lish , undan boshqa narsalarga ko'ngil qo'ymaslik haqida o'tkir fikr yuritilgan. Uning hikmatlarida Muhammad Mustafu (s.a.v) ta'limotida ulug'langan ma'naviy-axloqiy xislatlar , xususan saxovat , qanoat va rostgo'ylik targ'ib qilinadi , bildirilayotgan fikrlarni faqat Allohga tobe bo'lishga undaydi. Yassaviy riyozat , chilla , zikrga alohida ahamiyat berib , hayotining aksariyatini chillaxonada o'tkazgan. Yassaviyning hikmatlarida pand-nasihat asosiy o'rin tutadi. Uning asari

tom ma'nodagi hikmat sarchashmasi hisoblanadi.

Yassaviyning “Devoni hikmat” kitobida zikr masalasiga ham ko'p e'tibor berilgan va juda ko'p o'rinlarda Ahmad Yassaviy insonlarni g'ofillikdan uyg'onishlikka , iymonli bo'lishga , Allohni ko'proq zikr qilishlikka , doim namoz , ibodat va ro'za ila band bo'lishlikka chorlaydi. U bir hikmatida Allohni qo'rqib , mol-u dunyoga ko'ngil qo'ymaganni , har dam uxlamay , har soniya Alloh nomin aytib , uni zikr qilganlarni , yotsa ham , tursa ham , yursa ham faqat haq zikri ila mashg'ul bo'lganlarni botiniy ko'zlari ochiq bo'lgan haqiqiy musulmon ahlidan deb biladi. Chunonchi , haqiqiy musulmon asli shunday amallarga va sifatlarga ega bo'lmog'i darkor :

Haqdin qo'rqib mol-u pulni suymaganni

Haqni aytib , bir dam yotib uymagonni
Yotsa , qo'psa Haq zikrini qo'ymaganni ,
Ochdim botin ko'zlarini , bino qildim
[Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1991 , 92- b. Bundan keyingi misollar ham shu kitobdan olinadi va tegishli betlar qavs ichida ko'rsatiladi]

Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat”da iymon ahlini shunchaki tilda zikr qilishga emas , balki chin qalbdan va butun vujud ila Alloh nomini aytib , zikr qilishga targ'ib etadi. U insonlarni juda ko'p zikr qilishga , ko'proq istig'for va hamd aytishga chaqiradi. Chunonchi , zikr shunday bir ruhiy ozuqaki , u insonning dardlariga davo va qalbiga huzur-halovat bag'ishlaydi. Yassaviy ta'biri bilan aytganda , “Olloh degan qand-u asal paydo qildi”. Bu haqida Qur'oni Karimda shunday marhamat qilinadi :



“Ular imon keltirgan va qalblari Allohni zikr qilish – eslash bilan orom oladigan zotlardir. Shunday ekan, qalblar Allohni zikr etishdan orom olmasmi ?!” (Ra’d surasi 28 - oyat) ¹ Bunday mazmundagi hikmatlarni Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”ida ko`plab uchratish mumkin :

Olloh degan qand-u asal paydo qildi
Oxiratda Olloh birla savdo qildi,
Amal qilg`on chin olimni dono qildi,
Jon-u dilda Haq zikrini ayting , do`stlar
(239-bet)

Demakki , zikr – faqat Allohni yod aylash , uning go`zal ismlarini eslash emas, balki dil , fikr va tuyg`uni Allohga yo`naltirish , Alloh ila mukammal bir shuuriy , zehniy aloqa o`rnatish zarurki , bu baxt hammaga ham nasib etavermagan , albatta.

Shuning uchun tasavvufda zikr ikki qismga ajratilgan : bir – “zikr omma” , ikkinchisi – “zikri xos”. Zikri omma savobni qo`lga kiritmoq niyati ila amalga oshirilib , unda zokirning tabiatidan yomon xislatlar butunlay ketmagan bo`ladi. Xoslarning zikri buning aksi : unda nafs tamoman mag`lub etiladi va qalb ma`rifat , muhabbat nurlari ila yorishib , tilda ham , dilda ham Olloh ismi va ishqidan boshqa hech nima qolmaydi. Ammo bunday ulug` hol sohibi bo`lmoq uchun qat`iy intizom , sabr va ixlos bilan zikrga berilish talab etilgan. ²

Chunonchi , Xo`ja Ahmad Yassaviy ham xuddi shunday qat`iy intizom , sabr va jon-u dildan Haq zikrin aytish tarafdoridir :

Olim uldur namoz o`qub toat qilsa ,
Haqdin qo`rqub , oxiratni g`amin yesa ,

Qur`on o`qub , Haqdin qo`rqub zor ingrasa ,

Jon-u dilda Haq zikrini ayting , do`stlar
(239-bet)

Haqiqiy olim namoz o`qub , toat ibodat qilgan , Allohdan qo`rqub , oxirat g`amin yegan , Qur`oni Karimni o`qub , Allohdan qilgan barcha gunoh ishlarning mag`firatini yig`lab so`ragan va Allohdan qo`rqan insondir. Jon-u dildan Haqni zikr qilish esa bora-bora “zikri xos” darajasiga olib boradi. Yuqorida aytilganidek , bu ulug` darajaga erishish uchun , ya`ni “zikri xos”ga yetishmoq uchun “qat`iy intizom , sabr va ixlos bilan zikrga berilish talab etilgan”. Alloh taolo shunday marhamat qiladi : “Albatta , iymon keltirgan va yaxshi amallar qilgan zotlar – ana o`shalar yaralmish jonzotlarning eng yaxshisidirlar. Ularning parvardigonlari huzuridagi mukofotlari ostidan daryolar oqib turadigan mangu jannatlardir. Ular o`sha joyda abadul-abad qolguvchidirlar. Alloh ulardan rozi bo`ldi , ular Allohdan rozi bo`ldilar. Bu mukofot parvardigorlaridan qo`rqan kishilar uchundir” (“Bayyina” surasi 7-8 - oyatlar).

Ahmad Yassaviy ta`kidlashicha , sahar vaqti bedor bo`lib , Allohni zikr qilish va ibodatda bo`lish ajr-u savobi juda ham ulug` bo`lur. Erta sahar turib , ibodat qilgan , o`zni g`aflat o`tidan xalos qilgan musulmonlar “Haqni hozir ko`rarlar sahar vaqti ichinda”. Eng yaxshi payt sahar payti , bu paytda ibodat qilish esa jannatda tom ma`noda rohatga erishmoqlikdir. Shuningdek , sahar vaqti gullar ham , bulbullar ham va sahar turgan mo`minlar ham, xullas, butun olam Allohga hamd-u sano aytadi , zikrni tildan tushirmaganlar

¹ Muhammad al- Jazariy. Tasavvuf sirlari. – Tosh.: “Movarounnahr” , 2000, 59 - b.

² Haqqulov I. Tasavvuf saboqlari . O`quv qo`llanma . – Buxoro : 2000 , 105 - b.



bora-bora Haq visoliga erishadi. Saharda zikr qilish qadrini va lazzatini faqatgina Allohga oshiq qullar biladilar, bunday lazzat qadri g'ofillarga mutlaqo noma'lumdir. Zeroki, sahar shunday qadrlil, rohat bag'ishlovchi va ajr-u savobi ulug' qilib berilgan ekan, sen ham Allohga jon-u dildan ibodat qilgin "sahar vaqti ichinda":

Bedor bo'lg'il, ey mo'min, sahar vaqti ichinda,

Qutqor o'zungni o'tdin sahar vaqti ichinda.

Saharlarda ul gullar sano aytur bulbullar,

Kim ayturkim bir-u bor sahar vaqti ichinda ...

Sahar lazzatini oshiq qullar bilurlar,

Haqni hozir ko'rarlar sahar vaqti ichinda.

Sahar vaqti xush soat, ham jannat erur rohat,

Tangriga qil ibodat sahar vaqti ichinda
(242-bet)

Tasavvufda Allohni zikr qilishning 3 yo'li ko'rsatiladi: istig'for, salovat va asmoi sab'a (Allohning yeti ismi va ularni zikr etmoq). Yassaviy hikmatlarida har uchala usuldagi zikr xususida so'z yuritilgan. Yuqoridagi hikmatlarida esa har uchala zikrni ham uyg'unlashtirib yuboradi. Ya'nikim unda sahar vaqtida turib. namoz o'qish, salovat va istig'for aytib, asmoi sab'ani ko'p bor takrorlash amallari xususida gapirilgan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Yassaviy insonlarni ko'proq zikr qilishga chaqiradi. Chunki shom-u sahar Allohning zikri va yodi ila band bo'lgan qalbda turli xildagi qabihliklar, ko'ngilxushliklar insonga manfaatsiz bo'lgan maishatlar aslo uchun joy qolmaydi. Inson zikr qilish orqali ham ruhan poklanadi, ham ikki dunyo

saodatiga erishib, Alloh suygan bandalari qatoridan joy oladi.

Yassaviy hikmatlar yaratar ekan, ma'lum bir asosli va ishonchli manbaga tayanadi va bu tayanadigan manba Qur'oni Karim va Hadisi shariflardir. Bunga isbot sifatida shuni ko'rsatishimiz mumkinki, Qur'oni Karimda ham zikr masalasiga ko'p e'tibor berilgan. Qator sura va oyatlarda buni kuzatishimiz mumkin. Yassaviyning zikr masalasidagi va taqvo bobidagi hikmatlari "Ey mo'minlar, Allohni ko'p zikr qilinglar. Va erta-yu kech Uni poklab yod etinglar" ("Azhob" surasi 41-42 - oyatlar), "Allohni ko'p zikr qilinglarki, shoyad najot topursiz" ("Juma" surasi 10-oyat) kabi qator sura va oyatlar ta'sirida yaratilgan.

Banda bo'lsang zikring ayg'il, qo'lung olsin,

Yo'ldin ozsang, rahbar bo'lub yo'lga solsun,

Saharlarda zori qilg'il rahmi kelsun,

Qo'lim tutub yo'lg'a solg'il, antalhodiy
(246-bet)

Agar sen Allohga haqiqiy banda bo'lsang, zikr qilg'il va unga ko'proq duo qilgin. Shunday zikr ahlidan bo'lginki, sen yo'ldan ozgan mahal Alloh senga rahbar bo'lib, to'g'ri yo'lga solsin. Saharlarda shu amallarni so'rab duo qilgin, qo'lingdan tutib, Haq yo'lga solishini tila. Chunonchi, musulmon kishi har qanday holatda ham zikr va duo qilishsa joiz ekanligiga Qur'oni Karim oyatlari va Payg'ambarimiz (s.a.v)ning muborak hadislarida hujjatlar bor. Bu Qur'oni Karimning o'n uchta surasi 16 oyatida zikrga buyurilgan. Said ibn Jubayr: "Kishi biror amalni bajarishda Allohga itoat qilib, Uning roziligini topish niyatida bo'lar ekan, u zokirdir", - degan.

Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda Nabi alayhissalom: "Robbingi: "Modomiki, bandamning lablari meni zikr etib



qimirlar ekan, men u bilan birgaman”, – deydi”, deganlar. Qur’oni Karimda Alloh taolo yana : “Bas , Meni eslangiz , sizni eslayman. Menga shukr qilingiz , noshukurlik qilmangiz”, – degan (“Baqara” surasi 152-oyat). Yoxud Alloh taolo kalomida : “Qachonki , bandalarim sendan men haqimda so`rasalar , bas , albatta , men yaqindirman. Duo qiluvchi duo qilganda duosini ijobat qilurman”, – deb marhamat qilgan (“Baqara” surasi 186-oyat).

Haq yodidin zarra g`ofil bo`lmog`onlar ,
Yotsa , qo`psa haq zikrini qo`ymog`onlar

Valloh-billoh dunyo harom olmog`onlar ,
Go`r ichinda ul qul hargiz o`lmas bo`lur
(155-bet)

Haq yodi ila yashaganlar va undan zarracha uzilib qolmay , g`ofil bo`lmaganlar , shom-u sahar Haq zikrini tildan , dildan va butun vujudidan sira qo`ymaganlar , dunyo molin harom bilib , unga zarracha hirs qo`ymaganlarning qabrda yotishi ularning o`limi emasdir. Bu ularning zohiriy , ya`ni jisman vafot etishlaridir. Bu aslida foniy dunyodan boqiy dunyoga rihlat qilishlikdir va pok ruhning Alloh huzuriga ko`tarilishidir.

Alloh taolo nomin 2 usulda zikr qilish mumkin : biri – zikri jahri , ikkinchisi – zikri xufiya. Zikri jahdi – baland ovoz bilan ijro qilinadigan ochiq , oshkora zikr. Zikri xufiya – pinhoni bo`ladigan zikr. Qur’oni Karim va Hadisi shariflarda keltirilishicha , Zikri jahdi zikri xufiyadan ming karra

a`lodir (Ahmad Yassaviy ijodida ham shu nazariyaning mavjudligi uning hikmatlari orqali yaqqol namoyon bo`ladi). Fikrimizni quyidagilar orqali dalillaymiz :

Imom buxoriy Payg`ambarimiz (s.a.v)dan rivoyat qilgan hasidi qudsiyda alloh taolo : “Ey odam bolasi ! Agar meni o`zing tanho eslasang , men ham seni o`zim tanho eslayman , agar ko`pchilik ichida eslasang , men ham seni ko`pchilik ichida eslayman”, – degan. Yoxud Abu Hurayra (r.a)dan qilingan rivoyatda Nabiy alayhissalom :”Qay bir qavm o`tirib , Alloh azza va jallani zikr qilsalar , albatta , ularni farishtalar qurshab olur , rahmat o`rab olur , ustilaridan sakiyna nozil bo`lur va Alloh ularni o`z huzuridagilarni ichida zikr qilur”, – dedilar. Qalbi iymon bilan muzayyan bo`lgan kishilar o`tirib , Allohni zikr qilishlari tufayli shunday buyuk darajaga erishsa , mo`minlar uchun bundan-da buyukroq saodat bormi ?!

Xo`ja Ahmad Yassaviy turkiy , jumladan , o`zbek tasavvuf adabiyoti taraqqiyotiga yuksak darajadagi purma`no hikmatlari bilan o`zining tengsiz ulushini qo`shib , avlodlar uchun muhim axloqiy-ta`limiy mohiyat kasb etuvchi adabiy meros qoldirdi. U Allohga yetishish , Uni har soniya zikr qilish , Alloh bilan birlashish , o`zlikdan kechish , nafsni tiyin va kamolotga erishish yo`lidagi haqiqiy dasturilamaldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – T.: G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. 1991 , - 255 b.
2. Muhammad al- Jazariy. Tasavvuf sirlari. – Tosh.: “Movarounnahr”, 2000 , - 100 b.
3. Haqqulov I. Tasavvuf saboqlari . O`quv qo`llanma . – Buxoro : 2000 , - 142 b.